E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Tabiiy zararlangan o'tloqi qora tuproq sharoitida kungaboqarning oq chirish kasalligiga qarshi zamonaviy kurash choralari

Aliyev Shovvozbek Karimovich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, q.x.f.n dotsenti

Sharofiddinov Bekzodjon Dilshodjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, 2-kurs talabasi

Annotatsiya; Tabiiy zararlangan o'tloqi bo'z tuproq sharoitida kungaboqarni yetishtirishda hozirgi zamon rivojlangan texnalogiyalarni qo'llanilishi hisobiga urug'larni to'la unib chiqishi nazorat variantiga qaraganda 2-3 kunga farq qilgan.

Shuning bilan birga suyuq bordo konsentratining 0,7- 1,0kg/t hisobida ishlov berilganda kungaboqarning oq chirish umumiy kasalligi nazoratga nisbatan 2 barobar kam zararlangan. Hosildorlik esa sog'lom o'simliklar hisobiga 8.9s/ga ortiq, etalon variantga qaraganda 6.4s/ga nisbatan qo'shimcha hosil olingan.

Kungaboqarnng oq chirish kasalligiga qarshieng maqbul fungisid bo'li

Suyuq bordo konsentrati deb bilamiz.

Kalit so'zlar; Tuproq, nav, ko'chat qalinligi, o'sish va rivojlanishi, oq chirish,hosildorlik xulosalar. Fungisid, hosildorlik, xulosalar.

Kungaboqar ekini bugungi kunga kelib muxim axamiyatga ega bo'lgan moyli ekinlardan bo'lib xisoblanadi. Bu ekinning qimmatli tomoni shundaki undan xalqimiz uchun qimmatli moy olinib kelinmoqda. Xozirda kungaboqarni ekilib kelinayotgan maydoni kenggayib borishi munosabati bilan, olinayotgan hosildorlik yildan-yilga ortib bormoqda. Ammo olinayotgan hosildorlik va undan ishlab chiqarilayotgan yog' miqdori talab darajasida emas, chunki hosilning bir qismi zararkunanda va kasalliklarni tarqalishi hisobiga xosilning bir qismi nobud bo'liishiga olib kelmoqda. Keyingi yillarda bir qator olimlarimiz tomonidan olib borilayotgan izlanishlari natijasida kungaboqardan ya'an bir tajriba misolida [2] ko'rish mumkinki infeksiyaga qarshi ketma-ket surinkali bir maydonga kungaboqarni ekmaslik lozim, shuning uchun kisqa ratasiyali almashlab ekishni tavsiya etish lozim degan xulosaga kelgan.

[3] Barcha tadbirlar bilan birga shunga amal qilmoq lozimki kungaboqar urug'ini bir maydonga ikki yil ekmaslik lozim degan xulosaga kelgan.

T a j r i b a s x e m a s i

1-jadval

t/r	Tajriba variantlari	Yillik me'yori l/ga	Kimyoviy moddalarni qo'llash muddati	Ajratilgan maydon ga
1	N a z o r	-	-	2. 0.ga

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

	a t			
2	Mis kuporosi 4 (etalon)	4 kg/t	Kasallikni birinchi ko'rinishi yuzaga kelganda	2.0 ga
3	Maksim 3.5% s.p	5 l/ ga	Ekishdan oldin urug'larni dorilash	2.0 ga
4	Suyuq bordo konsentrasiyasi0.7-1.0kg/	2 l/ga	Kasallikni birinchi yuzaga kelganda	2.0 ga

Tajriba Andijon qishloq xo'jalik va Agrotexologiyalar institutining o'quv tajriba xo'jaligining maydonida olib borilgan. Tajriba 4 qaytariq 4 variantdan tashkil topgan bo'lib, barcha variantlar bir yarusda joylashtirilgan, har bir variant 8 qatordan iborat , Tajribada qatorlar orasi 60x20-1 sxemasida, namligi yetarli bo'lgan maydonga "Jaxongir" navi 21-iyulda ekilgan

Urug'lar ekilgandan 6-chi kuni 3-variantida unib chiqqan yosh nixollar soni 76.2% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat variantida bu ko'rsatkich 67.4%ni tashkil etgan. Qolgan 2 va 4-varianlarda bu ko'rinish 70.3-72.9%da bo'lgan. Darxaqiyqat hosildorlikni ortishiga ko'chat qalinligi muxim ahamiyatga ega bo'lgan faktor bo'lib xisoblanadi, chunki har gektar maydonda Rejadagi ko'chat qalinligini saqlab qolinganda avvalo kungaboqarning yashash davri 7-10 kunga uzayibgina qolmay balki savatchadagi donlarning ko'satkichi yuqori bo'lishiga olib keladi.

Turli kimyoviy moddalarning kungaboqarning o'sish va rivojlanishiga ta'siri.

2-jadval

Variantlar	Urug'lar niunib Chiqish ko'rsatkichi	Xisobga olingan sanalar				Barglr
		15 VIII	1-IX	15I X	1X	
Nazorat	86.2	18.3	30.1	72.9	77.4	8.9
Mis kuporosi 4kg/t	89.5	24.3	36.8	78.3	89.1	12.3
Maksim -3.5% s.p	91.5	29.6	44.4	86.1	97.0	13.7
Suyuq bordo suyuqlgi 0.7-1.0kg/t	96.1	33.4	51.2	92 .8	112.3	14.8

Kungaboqarni ekish muddatini belgilash muxim axamiyatga ega bo'lgan tadbir bo'lib xisoblanadi, chunki ob -havoning ochiq kunlari urug'larni o'z vaqtida ekilishi hisobiga shu maydonda to'liq gektarlarni hosil qilish bilan birga, ko'chatlarni erta o'sishi va rivojlanishiga imkon yaratilgan bo'ladi.

Keltirilgan jadval -2 dan ma'lum bo'lishicha , kungaboqar ekilgan maydondagi o'simliklarning o'suv poyasining balandligi barcha variantlardagi o'simliklarning o'suv

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

poyasining balandligi bir-biriga yaqin bo'lgan. Ammo keyingi 15-sentyabrdagi olingan ma'lumotlar oldingi olingan ma'lumotlardan tubdan farq qilgan , eng yaxshi variant 4-chi bo'lib chiqdi. Bu variantlardagi kungaboqar poyasining o'suv balandligi 92.8sm. bo'lgan bo'lsa, shu sanada , nazorat varantdagi o'simliklarning o'suv shoxi 72.9sm. gacha bo'lgan ular o'rtasidagi farq 4-variantidgi o'simliklaring o'sish poyasining balandligi 19.9 sm baland o'sgan.

Barglar soni bu ko'rinish variantlar bo'yicha olinganda nazorat variantidagi ko'chatlarda boshqa variantdagi o'simliklarga nisbatan barglarni yuzaga kelishi orqada qolgan .Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha nazorat variantida har bir ko'chatda 8.9 donadan yuzaga kelgan bo'lsa, eng ko'p barglar to'plangani 4-variantidagi ko'chatlarda yuzaga kelgan nazorat variantiga qaraganda 5.9 donaga ko'p barglar bo'lgan. Bundan ko'riib turibtiki o'simliklar uchun qancha yuqori agrotexnik tadbirla rni qo'llanilishi kungaboqarda yangidan –yangi morfologik belgilar yuzaga kelishiga asos bo'lar ekan. jadval--3

Turli kimyoviy moddalarning kungaboqarni qismlari bo'yicha kasallanishi va hosildorligiga ta'siri

3-jadval

Tajriba variantlari	o'chat qalinligi ming a.	isobga olingan usimliklarsoni	Kasallikni rivojlanishi			mumiry kasallanish %	mumy hosildorlik s/ga	ing dona urug'ning og'irligi gr
			oya	arg	avatcha			
Nazorat	2.7	400	7.0	6.0	3.0	6.2	4.7	7.8
Mis kuporosi(etalon)	1.6	400	.0	1.0	7.0	1.5	7.2	1.3
3 Maksim-4.0-4.5l/ga	2.3	400	.0	9.0	4.0	8.6	8.3	3.4
4 suyuq bordo konsentrasiya o.7-1.0 kg/t	1.9	400	.0	2.0	.0	7.3	3.6	6.7

Kungaboqarning oq chirish kasalligini qo'zg'atuvchi patogenning agressivlik qobiliyati bilish maqsdida tajribaning 1 va 3-qaytariqlardan, ya'ni har bir variantdan 100 tadan ko'chatlar sanab olinb kungaboqar poyalarining aloxida-aloxida qismlarida tarqalganligi bo'yicha hisoblar olib borildi jadval -3 olib borilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha eng ko'p kasallanish S chroet f helianthi Novot patogeni bilan nazorat variantidagi poyalarda quzatildi ya'ni 17% tashkil etgan bo'lsa, 4-variantidagi o'simlik poyalarida bu ko'rinish 3% ni tashkil etgan. Boshqacha qilib aytilganda barglardagi kasallnishga e'tibor berib qaralganda kuchli kasallik nazorat variantida kuzatildi, bu variantidagi o'simliklardagi barglardagi kasalliklar soni 3 barobar ya'ni 4-variantga nisbatan ko'p kasallangan. Etalon variantga qaraganda 5 foiz ortiq kasallanish kuzatildi. Darxaqiqat shundaki yuqori moyli kungaboqar navidan yuqori hosil olish muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

Kungaboqar ekinining hosildorligini oshirishda keyingi yillarda Zamonaviy texnalogiyalarni qo'llanilishi hisobiga tarkibida yog' miqdori yuqori bo'lgan va kasalliklarga

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

chidamli navlarni yetishtirish bilan ularning yashash davrini 8-10 kunga uzaytirishga erishilmoqdalar

Keltirilgan jadval-4 dan ma'lum bo'lishicha, eng yuqori hosil 4-variantdagi kungaboqar ko'chatlaridan olingan, bu variantdan 23.6 s/ga dan olingan bo'lsa, nazorat variantdan esa bu ko'rsatkich 18.3s/ga ni tashkil etgan, boshqacha qilib aytilganda 5.3s/ga kam hosil olingan. 1000 dona donning og'irligi nazorat variantida 47.8gramm bo'lgan bo'lsa 4-variantdagi doning vazni 56.4 gr bo'lgan, ular o'rtasidagi farq 0.8 grmmni tashkil etgan.

Xulosalar

1.Biz xisoblaymizki tabiiy zararlangan maydonda bir yil kungaboqar ekinini yetishtirilgandan so'ng, uch-to'rt yilgacha kungaboqar ekinini ekmaslik maqsadga muofiq deb hisoblaymiz.

2.Kungaboqar ekinini surinkali bir maydonga 2-3 yil ekmaslik lozim deb bilamiz.

3.Tajriba maydonida oq chirish kasalligiga qo'llanilgan kimyoviy moddalar kungaboqar o'simligining o'sish va rivojlanishga xech qanday ta'sir etmay faqat patogenga fungisidli qobiliyatiga ega bo'lgan.

4.Biz hisoblaymizki kungaboqarning oq chirish kasalligini keltirib chiqaruvchi patogenga qarshi eng maqbul modda suyuq bordo konsentratining 0.7-1.0 kg//t urug'ga ekishga 1-2 oy aralashtirib dorilanganda, vegetsiya davrida o'simliklarning kasllikka bo'lgan chidamliligi ortishiga olib kelgan va hosildorlik 8.9s/ga ortishiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Otaboyeva X.N va bosh O'simlikshuoslik darslik . t.2018

2.Azraizov T va bosh Takroriy kungboqar yetishtirish bo'yicha tavsiyalar http.s.//agro.uz/uz/services/recommendations/4613

3 Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash maxsulot yetishtirish bo'yicha namunali texnalogik kartlar 2016- 2020 T. 2016 jurnal 2qism

WORDLY
KNOWLEDGE